

TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI YARATISHDA PERSPEKTIVANING AHAMIYATI

Oltmishev Toxir Turg'unovich

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası
o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail:daddy111266@gmail.com*

*Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual
va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z
tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan
insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun
davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini
safarbar etamiz*

SH. M. Mirziyoyev

***Annotasiya.** Tasviriy san'atning tarixi rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Rus badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga yetarli e'tibor berilmagan.*

***Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, rangtasvir, perspektiva, havo, portret, natyurmort, manzara.*

***Annotation.** The history of fine arts has a great deal of methodological experience in the practical study of painting. The methodical literature contains a lot of valuable materials, which contain a lot of technical and technological advice. As for the theory of painting, the importance of historical heritage in this matter is less noticeable. In the Russian Academy of Arts, too, the practical teaching of painting was very strong, but not enough attention was paid to the development of the theoretical foundations of painting.*

***Key words:** Fine art, painting, perspective, air, portrait, still life, landscape.*

Tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakillantirishga qaratilgan.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida, dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladidi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan mo'zey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida Ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir.

Rus rassomi va pedagogi D.N. Kardovskiy aytib o'tganidek: «San'atni o'rganayotganlar tasvirlashning yo'llari va usullari, ya'ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'syunishga majburdirlar»¹.

Tasviriy san'atning tarixi rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Rus badiiy Akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga yetarli e'tibor berilmagan.

Keyingi vaqtda tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda yorug'-soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalar ham tasviriy faoliyatni bekamu ko'st yoritib bergan, deb bo'lmaydi. Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina (qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi,

¹ Д.Н.Кардовский. Воспоминания, статьи, письма. М., 1960, 128-бет

perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri topish, metodik ketma-ketlikda ishni tushirish va h.k.) rangtasvirida ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini taxlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi.

Uyg'onish davrining buyuk italiya rassomi, matematigi, mexanik va muxandisi, olimi Leonardo da Vinchi perspektivani uch turga ajratgan edi.


1. Chiziqli perspektiva.
2. Relif perspektivasi
3. Rang va havo perspektivasi.

Chiziqli perspektivada narsalar kishi ko'zidan uzoqlasha va yaqinlasha borgan sari ularning o'lchovlarida, havo, ranglarida o'zgarishlar yuz beradi.


Relif perspektivasi deganda esa narsa shakllaridagi aniqlik va ularning fazoda uzoqlashuvi natijasida yorug'lik va soya o'rtasidagi nisbiy o'zgarish tushuniladi.

Rang va havo perspektivasining mohiyati, rasm ishlashda rasmning ta'sirchan va ifodali chiqishida ahamiyati kattadir.

Perspektiva fransuzcha so'z bo'lib, *la perspective* — uzoqqa qarash, yunonchasiga esa *perspictor* — oyna orqali to'g'ri va aniq ko'rayapman degan ma'noni bildiradi. Bunda kuzatuvchiga nisbatan uzoqlashib borayotgan tomonlar oldinda turgan tomonga nisbatan biroz kichraygan holda ko'rinadi. Masalan, temir yo'llar, simyog'ochlar misolida buni ko'rish mumkin (1,2 -rasmlar). Bundan tashqari, havo perspektivasi, rang perspektivasi ham mavjud. Rang va havo perspektivasi ham ana shu talablarni amalga oshirishda qo'l keladigan muhim qoidalardan biridir. Qisqarishni ko'chalarda, daraxtlarda, binolarda va bino ichkarisida ya'ni xonalarda ham aniq ko'rishimiz mumkin.



1-rasm



2-rasm

Perspektivani rasm chizishda to'liq qo'llay olishimiz uchun va uni qanday sodir bo'layotganini bilishimiz uchun shunchaki atrof – muhitni diqqat bilan kuzatishimiz kifoya qiladi. Ozgina perspektiva xaqida tushunchaga ega bo'lishimiz atrofimizda uni topishimizga katta yordam bo'ladi. Bir marta ko'rib olsa bo'ldi tabiatda perspektiva doim siz bilan bo'ladi. Yo'llar ,yo'laklar ,simyog'ochlar, qator qurilgan uylar bizga yordam beradi. Qalamtasvir yoki rangtasvirda badiiy asar natyurmopt , portret va manzara yaratishda havo perspektivasi xaqida tasavvurga ega bo'lishimiz talab etiladi. Bunday xodisani tabiatda hamma kuzatgan. Havo perspektivasi natijasida yaqindagi daraxtlarning xar bir bargi , shoxlari , tanasi aniq ko'rinadi , uzoqlashgan sari aniqlik yo'qolib umumiy lashib ketadi. Bu qonun bizga yaqin turgan buyumlarni to'laqonli eng mayda bo'laklarigacha ko'ramiz , uzoqlashganda hamma narsa- buyumlar umumiy xolatini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



3-rasm.

Fazoda uzoqlashishi oqibatida narsa- buyumlardagi aniqlik, ranglar, yoryg'-soya munosabatlar yumshab xiralashib boradi. Havo perspektivasi qalamtasvirda planlarni va uzoqlikni ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Biz natyurmort, alohida buyumlar, portret yoki odam gavdasini chizayotganimizda bizda yaqin oldingi plan orqa planga nisbatan aniqroq ishlanadi. Oldingi plandagi yoryg'-soya munosabatlar kontrastligi keskin ko'rinadi. Orqa plandagilar biroz yumshoqroq ishlanadi (3-rasm). Perspektivasining ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish talaba uchun juda muhim. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga talaba, qanday vazifa bajarishidan qat'iy nazar (portret, natyurmort, manzara va hokazo), amal qilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.S. Abdirasilov, N. Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir. O'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

2.Botir Boymetov. Qalamtasvir. "Musiqqa" nashriyoti.Toshkent . 2006"

3.Xudoyberdiyev, M. (2021). “Manzara rangtasvirini” O’qitishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).

4.Xudoyberdiyev, M. (2021). Umumiy o‘rta ta’lim tizimida tasviriy san’at o‘quv fanini o‘qitishning ahamiyati. *Физико-технологического образование*,